



9-fevral – Alisher Navoiy tavallud topgan kun

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi



2013-yil
4-fevral
№5
(66910)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

Bolalar – bolajonlarga!



YUTUQLAR GAROVI

Farzand aqli, dono va har tomonlama sog'lom bo'lib kamolga yetishi uchun uni voyaga yetkazayotgan ota-ona ham yuksak ma'naviyat egasi bo'lmog'i lozim. Ya'ni, oiladagi muhit farzand tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Sergeli tumanidagi 317-maktabning 9-sinfida tahsil olayotgan Abdulaziz Melixov jayev ham havas qilsa arzigulik oilada tug'ilib, voyaga yetmoqda.

(Davomi 7-betda)

IBRATLI TASHABBUS

Aziz o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, gazetamizning avvalgi sonlarida V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi o'quvchilarining ibratli tashabbus bilan chiqishgani, konsert dasturlari uyushtirib, undan tushgan mablag'ni Respublika Gemotologiya va qon quyish ilmiy tekshirish institutida davolanayotgan, shuningdek, suyak sili kasalligi bilan og'rikan bemor bolalarga dori-darmonlar olishga sarflashgani haqida xabar qilgan edik.


O'quvchilar bu an'anani davom ettirib, har oyning o'n beshinchi sanasida o'quv dargohining katta zalida konsert dasturlari uyushtiradigan, undan tushgan mablag'ni esa bemor bolalarning salomatligini tiklash uchun sarflaydigan bo'lishdi.

Yaqinda mazkur litseyda tahsil olayotgan xalqaro va respublika miqyosidagi tanlovlar g'oliblaridan bir guruhi yana ushbu shifo maskanida bo'lib, dardmand kichkintoylarga bir olam zavq ulashishdi.

(Davomi 2-betda)



Sh.MAXMADIYEV ko'ltaji



NAVOIYNI ANGLAMOQ ZAVQI

*Hazrat Navoiy nomlarini tilga olsak, ko'z o'ngimizda
purviqor cho'qqi, tubsiz ummon namoyon bo'ladi. G'azal
mulking sultoni, olti asrdan buyon dunyo ahlini o'zining
betakror gulshaniga mahliyo aylagan buyuk zotning siymosi
gavdalanadi:*

*Kimki bir ko'ngli buzuqning
xotirin shod aylagay,
Onchadurkim Ka'ba vayron
bo'lsa obod aylagay...*

Baytda ko'ngil Ka'ba, Ka'ba esa ko'ngil. Kim bir o'ksik ko'ngilni shod etsa, uning savobi Ka'bani tavof aylashgina emas, balki uning nuragan joyini tuzatish bilan barobardir, deyiladi. Bobokalonimizning bahor chechaklari yanglig' dillarni xushnud aylaguvchi baytlarini o'qigan sari hayratimiz oshadi.

Mustabid tuzum bu yuksak ijodiyotni kamsitishga ko'purindi. «G'azal eskirdi. Uni o'qishdan hech qanday ma'no yo'q», tarzida to'mtoq fikrlar paydo bo'ldi.

Maktab darsliklarida Alisher Navoiyning hayoti, faoliyati va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berilardi. Ular bizni bobokalonimizning ko'ngil gulzoridan yiroqlashtirishga urinishardi.

Haqiqiy ijod mahsuli asrlardan asrlarga bo'y cho'zib, har qanday davr-u zamon to'siqlarini vayron etishiga guvoh bo'ldik:

*Kecha kelgumdir debon ul sarvi
gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otguncha
uyqu kelmadi.*

Olti asr avval aytilgan so'z. Xuddi bugun yoki kechaning so'zi kabi yurakka yaqin sado beradi. Shu o'rinda ko'nglimizni xavotirli fikr-mulohazalar chulg'aydi: Navoiy hazratlarining bizga qoldirgan boy, bebaho merosini o'qib, anglashga insonning umri yetarmikan?!

Agarda uning baytlarini sharhlamoqchi bo'lsakchi? Har qanday mani-mantiqsiz «izm»laming belini sindiradigan Navoiy bobomizning sermahsul ijodi hech qachon o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi,

eskirmaydi. O'zining yangicha jilolari bilan hayratimizni oshiraveradi.

Istiqlolga erishgach, Alisher Navoiy shaxsiyatiga alohida e'tibor qaratildi. Asarlari qayta-qayta nashr qilindi. Ayniqsa, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan nashr etilgan o'n tomlik kitob barchamiz uchun bebaho tuhfa bo'ldi. Ammo ayrim yoshlarimizning Navoiy ijodini o'rganishdagi sustkashliklari, tahririyatimizga kelgan ko'pgina ijodkor o'g'il-qizlarning uning g'azallarini yod bilmasliklari bizni ajablantiradi.

O'quvchilar Alisher Navoiyning sermahsul ijodi bilan yanada chuqurroq tanishsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi. Toki, biz kabi yoshligida Navoiyni chuqur o'rganmaganidan afsuslanib yurishmasin.

Bu borada biz ota-onalar, buvi-buvalar ham e'tiborliroq bo'lsak, har kuni ulug' bobokalonimizning g'azal va ruboiylaridan hech bo'lmaganda bir baytini bolalarimizga o'qib bersak, shoirning ruhini shod aylab, Navoiyni anglash zavqidan bahramand bo'lardik.

AXTAMQULI

IBRATLI TASHABBUS

(Boshi 1-betda)

«Bolalar – bolajonlarga!» loyihasini o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad san'atning sirli olamiga endigina qadam qo'yayotgan yosh iqtidorlar uchun sahnada o'z mahoratini namoyish etish imkonini yaratishdir. Shuningdek, bolajonlar qalbida san'atga, musiqaga havas uyg'otish, insoniylik, mehr-oqibat, o'zgalarga, ayniqsa, bemor, yordamga muhtoj insonlarga ko'maklashish kabi fazilatlarini shakllantirishdan iborat, – deydi akademik litsey direktori Dildora Jamolova...

E'tiborli jihati, bunday konsert dasturlarini o'quvchilarning o'zlari tuzishadi, tashkillashtirishadi, roliklar ham tayyorlashadi. Beg'ubor qalbi, o'zining san'ati, musiqiy iqtidori bilan shikasta ko'ngillarni ko'tarishdek yuksak insoniy tuyg'ularga limmo-lim o'quvchilar orasida «Yangi avlod» respublika bolalar ijodiyoti festivali qatnashchilarining ham borligi quvonarli holdir.

«Mustahkam oila yili»da boshlangan bu tashabbus «Obod turmush yili»da ham keng quloq yoyib, o'z samarasini ko'rsatmoqda. Bunday beminnat yordam tufayli bir qancha bemor bolalar ruhan tetiklashib, dardlariga shifo topib ketishyapti.

RIMALning tashabbuskor yoshlaridan iborat guruhning «Bolalar – bolajonlarga!» loyihasi doirasidagi navbatdagi xayriya konserti 15-fevral kuni soat 16.00 da



V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyining katta zalida bo'lib o'tadi.

Konsertga Siz ham keling, musiqaning sirli olamiga oshno bo'ling, ma'naviy ozuqa oling! Shuning barobarida dardmand qablarga umid, ishonch ulashishdek xayrli ishga o'z hissingizni qo'shishingiz mumkin.

«Ezgulikning qanoti bor» deganlaridek, tashkilotchilar bu ezgu tashabbusning viloyatlarda ham qanot yoyishini rejalashtirmoqdalar.

Biz esa bunday xayrli ishni boshlagan Dildora Jamolovanning shogirdlariga, hormang, oliyhimmat yoshlar, deymiz.

Dil OROM





BOBOMGA MAKTUB

Assalomu alaykum, bobojon! Sizdek buyuk zotga nabira ekanligimdan juda baxtiyorman.

Sizning uch-to'rt yoshingizdanoq she'riyatga bo'lgan cheksiz muhabbingiz, kitobni eng yaqin do'st deb bilishingiz, hatto kattalar ham tushunishi qiyin bo'lgan fors shoiri Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini maktab davrlaridayoq o'qib, yod olganingiz biz avlodlaringizga ibratdir. O'sha sizning mashhur baytingiz:

«Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur
har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur, yulduz
nihon bo'lg'och quyosh»ni

tinglab, ustozingiz Lutfiy: «Turkiy va forsiy tillarda yozgan o'n ikki ming misra g'azalimni shu baytga almashgan bo'lar edim», degan edi. Dunyo yaralibdiki, hali hech bir shogird ustozidan bunday chin ma'nodagi maqtoovni eshitmagan bo'lsa kerakki, bu ta'rif hali-hanuz el ichida ma'lum va mashhurdir. Do'stingiz Husayn Boyqaroga davlatni adolatlilik boshqarishda bergan beminnat yordamingiz, jang-u jadallar paytidagi dono maslahatlaringiz bilan yurti obod, xalqni farovon yashashiga munosib hissangizni qo'shgan edingiz.

Bobojon, biz ham yozgan asarlaringizni chuqur o'rganib, bebaho nasihatlaringizga, ibratli so'zlaringizga amal qilib, komil inson bo'lishga intilamiz. Vatanimiz koriga yaraydigan barkamol avlod bo'lib ulg'ayamiz, deb nabirangiz,

Gulbahor NORMUHAMEDOVA, Toshkent shahridagi 27-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

Sevimli adibimiz Oybekning romanini o'qib, bobomizning haqiqiy vatanparvar, xalqsevar, adolatpesha inson bo'lganligini yana bir bor qalbimdan his etdim.



«NAVOIY» ROMANINI O'QIB...

Shoir bobomiz beva-bechoralar, kambag'allar holidan xabardor bo'lib, ulardan yordamini ayamagan, xalqqa xizmat qilishni insoniy burch deb hisoblagan ekanlar. Shu sababli, u barcha zamondoshlarining mehr-u muhabbati, hurmatiga sazovor bo'lgan. Romanni o'qigach, bobomiz nafaqat odamlarga, balki jonzotlarga ham g'amxo'r bo'lganliklarini bilib oldim.

Hazrat Navoiy podshoh bilan birga sayilga boradi. Keng dala, musaffo osmon, so'lim tabiat qo'ynida biroz hordiq chiqarishgach, podshoh poytaxtga qaytishga qaror qiladi. Barcha chodirlar yig'ishtiriladi, ammo Navoiy o'z chodirini olishlariga ijozat bermaydi. Sababi, chodirda musicha in qurib, tuxum bosib yotardi. Bobomiz musichani tuxumlari bola ochib, palaponlari uchirma bo'lgunga qadar chodirni yig'ishtirmaydi.

Alisher Navoiy o'z xalqini, yurtini sevgani kabi ona tili bo'lgan turkiy tili nihoyatda ardoqlaydi. Uning boshqa tillarga nisbatan boy va ravon ekanini o'z g'azallari, asarlari orqali o'quvchilarga yetkaza olgan.

Ushbu romandan olgan taassurotlarimni sizlar bilan baham ko'rish barobarida kitobsevar tengdoshlarimga ham uni o'qishni tavsiya etaman.

Umidaxon KARIMOVA

MILLATIMIZ FAXRI

Biz Navoiy bobomizni millatimizning faxri, iftixori deb bilamiz. Yoshligidanoq behisob bilim cho'qqilarini egallagan bobokalonimizning sa'y-harakatlari, chekkan zahmatlari besamar ketmadi. Biz yoshlar uchun bitmas-tuganmas xazina qoldirgan buyuk shoirimizning asarlarini o'qib, unung mag'zini chaqishga intilamiz. Navoiy ijodi fikrimizni charxlashga, chuqur mushohada yuritishga undaydi.

**Laylo SUVONQULOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
63-ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim
maktab-internati o'quvchisi**



Po'latjon BOYNAZAROV

USTOZ-U SHOGIRDLAR HAQIDA SO'Z

Zahmatkash, fidoyi ustozlarimiz uchun shogirdining yutug'idan ortiqroq mukofot bo'lmas kerak-a?! Shuningdek, shogird uchun ham ustozining e'tirofidan-da yuksakroq sharaf yo'q.



Jahongir IBRAGIMOV

Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi 51-umumta'lim maktabi ma'naviyat ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Po'latjon Boynazarovdan kelgan maktubni o'qib, bu fikriming to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldik. Ustoz o'quvchilarining ijod namunalari yo'llabdi. Ular bilan tanishar ekanimiz, maktab rahbari Dilshodbek Bo'tayevning Po'latjon aka haqidagi iliq fikrlari e'tiborimizni tortdi:

«Bo'z pedagogika kollejida o'quvchilarga tasviriy san'at fanidan saboq berib kelgan Po'latjon Boynazarovning maktabimizga ishga kelishi barchamizni quvontirdi. Bugungi kunda u iqtidori, boy tajribasi, izlanuvchanligi bilan o'quvchilarimiz ma'naviyatini boyitishga hissa qo'shib kelmoqda. «Nishona» nomli she'riyat klubi tashkil qilib, maktabdagi ijodkor o'quvchilar bilan mashg'ulotlar o'tayapti. Bu

sa'y-harakatlari samarasi o'laroq, yosh qalamkashlarimizning ijod namunalari tuman, viloyat va hatto respublika nashrlarida ham chop etib kelinayotgani quvonarli hol. Bu tinib-tinchimas, izlanuvchan ustozimiz yosh bo'lishiga qaramay, «Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi» Respublika ko'riktanlovining tuman va viloyat bosqichlarida 1-o'rinni egallab, maktabimiz sharafini munosib himoya qildi. Ustoz va shogirdlar she'rlaridan jamlangan to'plam Andijon viloyatining «Hayot» nashriyotida nashrga tayyorlanmoqda...»

O'z kasbining fidoyisi, iste'dod-u intiluvchanlik bobida o'quvchilariga ibrat bo'layotgan Po'latjon Boynazarov singari ustozlarimiz borligidan bir sevingan bo'lsak, ushbu maskanda she'riyat, tasviriy san'at ixlosmandlari ko'pligidan o'n chandon quvondik.

Garchand yosh qalamkashlarning mashqlarini she'r deb atashga hali biroz ertaroq bo'lsa-da, ulardagi havasni, ishtiyoqni qo'llab-quvvatlaymiz. Yanada ko'proq she'rlar o'qib, uqib borishlari asnosida yangi-yangi fikrlar, tashbehlar, topilmalar topib, she'riyat qoidalariga javob bera oladigan mukammal she'rlar yozishlariga umid qilib qolamiz.

Maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi – yosh musavvir Javohir Ibragimov chizgan yil fasllari aks ettirilgan tabiat manzaralari hayratimizni oshirdi va ularni o'quvchilarimizga ham ilindik.

So'nggi so'z o'rnida andijonlik ustoz va shogirdlarimizga qarata, ijoddan charchamang, ulkan yutuqlar sari intiling, deb qolamiz. Biz esa Siz haqingizda yozishdan charchamaymiz.

Muzaffar AHMEDOV



Aziz o'quvchilar, unutmang, siz odob-u axloqda dunyo ahliga namuna bo'lgan avliyo, mutafakkir bobolarning nabiralarisiz. Ulardan bizgacha yetib kelgan bebaho hikmatlar, she'riar, dostonlar, rivoyat-u hikoyat kitoblari shundan xabar beradi. Tarixiy-badiiy manbalarda aytilishicha, ulug' bobolarimiz so'z va amal, va'da va vafot, omonat va diyonat uyg'unligiga hech qachon xiyonat qilishmagan. Shu bois ham kamil inson degan sharafli nomga ega bo'lganlar, avlodlar uchun ibrat namunasi sifatida tanilganlar.

Ana shunday ajdodlarimizdan biri Mir Alisher Navoiy ijodi kelajakda kamil inson bo'laman, xalqimga, ota-onamga xolis xizmat qilaman, o'zimdanda ezgu amal, o'chmas nom qoldiraman, degan bolalar uchun chin ma'noda ibrat xazinasidir. Navoiy bobomizning bolalikda naqadar kamtarin, odobli, ilmli, iste'dodli va mehnatsevar bo'lganlarini yaxshi bilasiz. Maktab yoshigacha «Qur'oni karim»ni, ko'plab g'azallar, muxammaslar, ruboiy va tuyuqlarni, qolaversa, Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» kitobini yod bilganlari haqida eshitgansiz. Buyuk tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy, mavlono Lutfiy, buyuk so'z ustasi Abdurahmon Jomiyning duo va olqishlarini olganlari siz o'qiyotgan darsliklarda yozib qo'yilgan. Bularning hammasi Navoiy bobomizning kamil axloq, bitmas-tuganmas fazilatlar egasi bo'lganlaridan dalolat beradi.

Bobomiz hayot yo'llari davomida ko'rgan-kechirganlari, ustozlaridan olgan saboqlari, o'qib-uyqanlari, tajriba va kuzatishlari asosida badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar yaratganlar.

Xususan, «Hayrat ul-abror» dostonlarida kamil inson axloqi, odob qoidalari xususida ko'p va xo'p fikrlar aytiladi. Bunda bolaning jamiyat, mahalla, maktab, oila doirasida munosib o'rin egallashi, yaxshi odam bo'lishi uchun zarur yo'l-yo'riqlar bayon etiladi.

Bobomiz odob-axloqning birinchi sharti sifatida kamtarlikni madh etadi. Kamtarlikning dushmani bo'lgan manmanlik, kibr-u havoni qoralaydilar.


*El yo'lida gard o'lubon dard ila,
Kibr ko'zin ko'r etib ul gard ila.
Ashki riyozatki sochib har sari,
Andin o'chub nafsni havo o'tlari...*



Bu baytlarni siz tushunadigan darajada soddalashtirsak, shunday ma'no hosil bo'ladi: har bir odamda nafs bor. Nafs degani, manmanlikni, kibr-havoni yaxshi ko'radi. U yeb-to'ymas (ya'ni, nafs) odamni (ya'ni, sizni) faqat o'zini o'ylashga, boshqalarning tashvishlari, ehtiyojlari bilan qiziqmaslikka, o'rijzarga, muhtojlarga kibr-u havo bilan qarashga undaydi. O'z yo'rig'iga solishga urinadi. Nafs shu darajada makkor va ustomonki, uni yengish oson emas. Kamil inson bo'laman degan bola nafs ustidan g'olib bo'lishi mumkin. Buning uchun u har daqiqa, har nafas olib chiqarganda, nafs bilan jang qilishi, u buyurgan yomon yo'lga yurmasligi, aksincha, bebosh nafsni to'g'ri yo'lga solishi lozim. Yomon nafs odam uchun tish og'rig'idek gap. Tish og'rig'idan qutulish qanchalik qiyin bo'lsa, yomon nafsni yengish undanda og'irroq. Bu yo'lida mehnat qilish, ter to'kish, azoblarga chidash, og'riqdan yig'lash, shu bilan birga, boshqalarning (ya'ni, xalqning) nazarida tuproqdek kamtarin bo'lish lozim. Shundagina nafs balosi yuragimizda yoqqan olov (og'riq) pokizalik yo'lida to'kilgan ko'z yoshlar suvi bilan o'chadi, kibr, manmanlikning behayo ko'zlari kamtarlik tuprog'ining chandigan ko'r bo'ladi. Yomon nafs mag'lubiyatga uchraydi.

Kamil axloqning ikkinchi belgisi rostgo'ylikdir.

*Ohu nadomatki chekib sidq aro,
Siddiq yuzin dudidin aylab qaro.
Siddiq ila har garm nafaskim urub,
Revu riyu xirmanini kuydurub...*



«HOSIL ET USHBU IKKISIDINI RIZO...»

«Kizb» – arabcha so'z bo'lib, ma'nosi yolg'ondir. «Kazzob» esa yolg'onchi degan ma'noni anglatadi. Bu yerda «sidq» so'zi yolg'onga qarshi qo'yilmoqda. Sidq, sodiq so'zlari ham asli arabcha – rostlik, to'g'rilik, xolislik mazmunida keladi. Navoiy hazratlari aytdilarki: nafsning yana bir quroli yolg'on, ya'ni bo'lmagan gapni rost kabi gapirish. «Riyo» esa yolg'onning o'ta xavfli shakli bo'lib, boshqalar oldida yolg'onchining rostgo'y, o'g'rining to'g'ri, nodonning dono, xasisning saxiy, qo'rqqning botir, qashshoqning boy bo'lib ko'rinishga urinishini bildiradi. Xalqimiz bunday odamlarni «ikkizlamachi» deydi. Yaxshi odam bo'laman degan bola rost uchun shu qadar jon kuydiradiki, uning og'zidan chiqqan har bir to'g'ri so'z olovga aylanib, xirmon-xirmon yolg'onlarni kuydiradi. Bu olov tutuni ikkiyuzlamachilar yuzini qora qiladi.

Odobning uchinchi muhim sharti hayo hisoblanadi.

*Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab...*

Johil el orasida doim yomonotliq bo'ladi. Johillik hech kimga yaxshilik, shon-shavkat olib kelmagan. Aksincha, hayoli bolani hamma hurmat qiladi. Hayoli bola tilini, ko'zini, oyog'i va qo'lini yomon narsalardan saqlaydi. Hayosiz bola aqlni xira, ko'ngilni qattiq qiladigan narsalarga qarashdan uyalmaydi. Yomon joylarga qadam bosadi, zararli ishlarga qo'l uradi. Behayoning kimligi so'zlagan gapidan, kattalar oldida tortinmasdan qah-qah otib kulishidan ham bilinadi. Zotan, behuda kulgi yomon so'z aytish, vaysaqilik, behuda daydish kabi qusurlar bilan bir qatorda turadi. Shuning uchun ham hazrat Navoiy bema'ni kulgini qoralaganlar.

*Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kulgu adab tarkiga belgu durur.
Qahqahadin kabk navo kelturub,
Boshig'a ul kulgu balo keltutub.
Qahqahakim hazl aning yoridur,
Qurbaqa savti bila raftoridur...*



Ya'ni: odobsizlikning belgilaridan yana biri behuda kulgi bo'lib, bunday qusurli odamni odob-axloq butkul

tark etadi. Chunki bema'ni kulgi xosiyatsiz bo'ladi. Masalan, kabk (kaklik) qah-qah otib kulishni odat qilgan edi. Uning noo'rin kulgisi o'z boshiga balo keltirdi. Badbaxt qush shu behuda qahqahasi bilan ovchiga o'z manzilini oshkor etdi. Oqibat, qattol o'qqa uchdi, umri yakun topdi. Garchi qahqaha otib kulayotgan odam o'z holatidan mamnun bo'lsa ham, boshqalar nazarida u bevaqt sayrayotgan irkit qurbaqaga o'xshaydi.

Demak, odob-axloqning mana shunday kundalik talablarini bajarmagan bola inson degan sharafli nomga nomunosib hisoblanadi. Nainki o'ziga, balki ota-onasiga ham isnod keltiradi. Zotan, «Hayrat ul-abror»da odobning oliy darajasi deb ota-onani roziligi ko'rsatiladi.

*Biri erur makrumati volidayn,
Bilki munung qilmog'idur farzi ayn...*

Ota-onani rozi qilish, ularni hayot paytlarida e'zozlash odobning eng ulug' shartidir. Bu shunchaki shart bo'lib qolmay, balki «farzi ayn» – bajarilishi farz bo'lgan ishdir. Ota-onani rozi qilishni Xudo buyurgan. Qur'onda ushbu farzni bajarmaganlarni qattiq jazolanishi keltirilgan. Shu sababdan ota-onani rozi qilish odob ilmining alifbosi hisoblanadi.

Mana shunday teran izohdan keyin bu yo'lidagi amaliy nasihatlar keladi:

*Bu ikining xizmatini bir bil,
Har necha ifrot esa, taqdir bil.
Ikki jahonning'a tilarsen fizo,
Hosil et ushbu ikisidin rizo...*



Hech qachon bularning birini boshqasidan kam ko'rma. Ota-ona xizmatini qancha ko'p qilsang ham, «Vazifamni bajarib qo'ydim», deb kerilma. Aksincha, qancha ko'p xizmat qilsang, shuncha kam qildim degan fikrda bo'l.

*Boshni fido ayla, ato qoshig'a,
Jismini qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kunungga aylagali nur fosh,
Birisin Oy angla, birisin Quyosh...*

Yaxshi bilamiz, har bir ota-ona bolasini deb jonini bersa beradiki, ularning zarracha ozor ko'rinishini istamaydi. Hazrat Navoiy bu o'rinda odobi mukammal, yuqorida bayon etilgan adab fanidan ibratlana oladigan, farosati butun farzandga murojaat qilyaptilar. Ya'ni, Xudo bergan aql-farosatingni otang roziligi, xursandchiligi, farovonligi uchun ishlat, taningda joning bor ekan, onang manfaat uchun yelib-yugurgin. Aql manzili bo'lmish boshing, kuch-quvvat manbai bo'lmish tanang ota-ona xizmatida sharaf topsin. Zotan, ularning biri Quyosh bo'lsa, biri Oydir. Yer shari quyosh-u oysiz zulmatga aylanganidek, sen ham ota-onangiz na aql, na seni ko'tarib yurgan jismga ega bo'larding. Ruhing zulmatda qolib ketar edi, demoqchilarki, bu so'zlar ma'nosini to'la anglash uchun jild-jild kitob yozsak ham kamlik qiladi.

Muhtaram o'quvchilar, mana, bobomiz Alisher Navoiyning odob-axloq saboqlaridan bir shingil o'qingingiz. Umid qilamanki, har biringiz u kishining qimmatli nasihatlarini dilingizga tugib olib, ularni akualaringiz, opa-singillaringiz, do'st-birolaringizga-da so'zlab berishni niyat qildingiz. Bugundan boshlab Navoiy bobomizni teran nigoh, pokiza qalb bilan o'qish va uqishga, uqanlaringizga amal qilishga chog'landingiz. Bu yo'lida sizga omad tilab qolaman.

**Uzoq JO'RAQULOV,
filologiya fanlari nomzodi**



Ko'hna Turon zaminimiz tarixiga nazar tashlasak, bilim, salohiyati, ilm-fan xazinasiga qo'shgan munosib hissasi bilan dunyoga tanilgan buyuk ajdodlarimizning nurli siymolari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Shunday ulug' zotlarning vorislari ekanligimizdan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Buyuk ajdodlarimiz xotirasiga munosib ehtirom ko'rsatish, tabarruk nomlarini abadiylashtirish maqsadida viloyat, tuman va shaharlarimiz, ko'cha va xiyobonlarimiz, o'quv dargohlari, kutubxonalar, teatr va san'at saroylarimizni ularning nomlari bilan atash xalqimizga xos bo'lgan qadriyatlardan sanaladi.

Jumladan, yurtimizda she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan maskanlar ham talaygina.

Bobomizning tavallud ayyomi arafasida go'zal poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan ana shunday manzillarning ayrimlari haqida qisqacha hikoya qilmoqchimiz.

SHE'RIYAT OLAMIGA CHORLAYDI

So'lim foylaxtimizda joylashgan Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida bo'lganmisiz? Buyuk bobomiz hayoti va ijodiga oid maktab darstligingizga kiritilmagan ajoyib ma'lumotlarga ega bo'lishni istasangiz, ushbu noyob, ilmiy-ma'rifiy muzey bo'lgan sayohatga chorlaymiz.

Muzeyga kiraverishda ikkinchi qavatga ko'tarilangiz, bobomizning haykaliga ko'zingiz tushadi. Bizni adabiyot, she'riyat olamiga chorlayotganday tasvirlangan bu sismo qarshisida bosh egib, ta'zim qilgiz keladi. Ana, bir bolakay qo'lini ko'ksiga qo'yib, ul zotga salom bermoqda. Uning harakati xo'p munosib ish bo'ldi-da!

1968-yili buyuk shoir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan tashkil qilingan muzeyga navoiyshunos olim Hamid Sulaymon rahbarlik qilgan. Uning ikkinchi qavati Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lib, o'nta zaldan iborat. Ulardan birida musavvir B. Plestinskiy tomonidan ishlangan shoirning bolaligi portretiga ko'zingiz tushadi. «Ustozlar xonasi»da esa o'smir yoshidagi Alisher va Husayn Boyqaroning «Ustoz huzurida»gi holatlarini tasvirlangan surat mavjud. Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Hofiz Sheroziy, Hofiz Xorazmiy kabi ustozlariga ham alohida ehtirom ko'rsatilgan.

«Do'stlar xonasi»da Xondamir va Husayn Boyqaro haqida ma'lumotga ega bo'lsangiz, «Lirika xonasi»da haqiqiy san'at asariga duch kelasiz. Buyuk shoirning g'azal va ruboiylari asosida xona devoriga rassom Chingiz Ahmarov tomonidan 1972-yilda ishlangan suratlarini kuzatar ekansiz, beixtiyor shoir asarlaridagi

odamiylik, mehr-muruvvat, vafo va sadoqat tuyg'ulari ifodasini tuyasiz.


XV-XX asr adabiyoti tarixidan «so'zlovchi» mazkur muzeyda O'rta Osiyo madaniyati va san'atining noyob badiiy namunalari – xattotlik, naqqoshlik, me'morchilik asarlaridan ham bahramand bo'lishingiz mumkin. Bobomizning shoh asariga bag'ishlangan «Xamsa» xonasi devorlari «Xamsa»ning besh dostoni asosida ishlangan devoriy surat bilan bezatilgan. Muzey xodimlarining aytishicha, xona devoriga «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlari qahramonlari tasviri tushirilgan gilam 1969-yilda buxorolik o'n to'rt nafar qizlar tomonidan to'qilgan ekan. Yaqinda bir yigit ushbu gilamga tikilib turib, qo'l telefoni orqali: «Buvijon, men hozir Alisher Navoiy muzeyida, to'qilishida siz ham ishtirok etgan o'sha gilam qarshisida turibman. U avlodlarga xizmat qilmoqda», deya xabar yuboribdi...

Ha, ushbu mo'jizaviy olamda yana qancha sir-u sinoatlar yashirin.

Muzey binosining o'zi ham noyob arxitektura yodgorligi sifatida diqqatga sazovor. 1933-36-yillarda qurilgan mazkur binoda ilk bor Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan ko'rgazma tashkil qilingan, 1947-yilda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyiga asos solingan. Bugungi kunda bu maskan Xalqaro muzeylar Kengashi tashkiloti ro'yxatida turadi.



Zubayr Abdullayev surat



MA'RIFAT GULSHANI

Bolajonlar, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi O'zbekiston Milliy kutubxonasini barchangiz yaxshi bilasiz. Kuni kecha biz ana shu ziyo maskanida bo'ldik, shoirning nodir asarlari, qo'lyozmalari qaydarajada saqlanayotgani bilan qiziqdik.



Istiqlol yillarida kutubxona xazinasini Hazratning nodir asarlari bilan yanada boyitilibdi. Ko'plab kitobxonlar kutubxonaga shoimning nodir asarlarini sovg'a qilishgan ekan. Kutubxonada bobomiz yodiga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik. Masalan, «Tarixi mulki ajam» asari 1875-yilda Venada ilk marta «Tarixi fanoyi» nomi bilan chop etilgan bo'lsa, «Lison-ut tayr» kitobi esa xattotlar tomonidan hijriy 1221, milodiy 1806-yilda qayta ko'chirilgan ekan. Shuningdek, kutubxonada shoirning 80 dan ortiq qo'lyozma va toshbosma asarlari saqlanarkan. Navoiy asarlarining 20 tomlik kitob shaklidagi elektron katalogi tuzilgan bo'lib, unga kirib, izlanayotgan asarning biror so'zi yozilsa, uning to'liq matni namoyon bo'ladi. Bu ham o'quvchilarga yaratilgan qulayliklardan biri hisoblanadi.

Ziyo maskanidan kitobxonlar qadami uzilmaydi.

«Kutubxonaga qilgan sayohatimiz menga juda yoqdi», deydi Buyayda tumanidagi 26-maktabning 2-sinf o'quvchisi Dilyorbek JALOLOV.

OYDIN KO'CHALAR



Zuhra NISHONOVA olgan surat

Alisher Navoiy nomi berilgan ko'cha haqida gap ketganda, zukko va bilimdon bolalar hayajon bilan: «Ey, «Tong yulduzi» gazetasi ham shu yerda joylashgan-ku», deyishlari aniq. Darhaqiqat, tahririyatimiz bu ko'rkam va chiroyli ko'chaning qo'q markazida joylashgan. Kundan kunga obod bo'lib borayotgan ko'chamizga boqib, uning tarixi va buguniga to'xtalgimiz keldi.

Mazkur ko'cha Amir Temur va Beruniy ko'chalari oralig'ida joylashgan bo'lib, uzunligi 4 kilometr atrofida. Dastlab Xadra maydonidan Anhor kanaligacha bo'lgan. 1893-yilgacha «Toshko'cha», «Kattako'cha» nomlari bilan yuritilgan. 1938-yili ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan mazkur ko'chaga Navoiy nomi berilgan. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so'ng Amir Temur shoh ko'chasigacha cho'zilgan.

Bu ko'chada Sog'liqni saqlash, Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati markaziy Kengashi, O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, «Dedeman», «Markaziy» mehmonxonalari, Mustaqillik va Xotira maydonlari, «Turkiston» saroyi, Alisher Navoiy nomidagi san'at saroyi, O'zbek Milliy akademik drama teatri kabi ma'muriy, madaniy va ma'rifiy maskanlar, turar joy binolari joylashgan.

Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan barpo etilgan «Shoirlar xiyoboni» adabiyot ixlosmandlarining eng sevimli maskanlaridan biri hisoblanadi.

Istiqlol yillarida Navoiy ko'chasining qiyofasi, shakl-shamoyili ham tubdan o'zgardi. Yo'l ikki tomonga kengayib, jahon talablari darajasida ta'mirlandi. Kechasi va kunduzi birdek charog'on Navoiy ko'chasiga yo'lingiz tushsa, uning obodligi-yu ko'rkiga mahliyo bo'lishingiz tayin.

O'z muxbirlarimiz.

Tursunboy ADASHBOYEV

TO'TIQUSHNING



YO'L-YO'RIG'I

Anjumanning mavzusi,
«Tarbiya» deb ataldi.
To'tiqush so'zlash uchun,
Ruxsatnoma – xat oldi.

Matal bilan boshladi,
Gapi sig'mas ta'rifga.
– Loylar tushsa qolipga,
G'ishtlar bo'lar olifta.

Bu yo'riqqa hamisha,
Sobit, sodiq qolinglar.
Menimcha, Qarqunoqdan
Ulgi, ibrat olinglar.

Texnika asri hozir,
Tezkor ishlar boshlandi.
Internet-kafelarga,
Jalb qilinglar yoshlarni.

Bobolarning urflari,
Eskirib qoldi, biroq.
Kompyuterlar oldidan,
Jilmagani yaxshiroq.

Har sohada o'zgarish,
Shaxdam qadam bosinglar.
«Sotka»larni bolalarning,
Qulog'iga osinglar.

Yoshlar «Shrek-Mrek»ni,
Ortiq ko'rar jonidan.
Ketishmasin olislab,
Televizor yonidan.

Yodlab nima qiladi,
To'rt amalni, karrani.
Kalkylator bor axir,
Tez egallar marrani.

– Kimda qanday taklif bor? –
Luqma tashlab o'tdi Soch.
Yaqinroq shoxga qo'nib,
Fikrin aytdi qaldirg'och:

– To'tining yo'l-yo'rig'i,
Bir o'ziga yarashgan.
Bobolar ham taqlidni,
Xatarli deb sanashgan.

Qushlarning palaponin,
Solib bo'lmas qolipga.
Qumri, Kaklik, Bedana,
Bo'lmasa ham olifta.

Bir-biridan oshirib,
Qoyillatib sayraydi.
Muxlislar rahmat aytib,
Dam oladi, yayraydi.

Mavzudan kelib chiqib,
Sharoit, shartga moslab.
Bulbul muzokarada,
So'zlarini asoslar:

– Har kim aytar inida –
Uyasida ko'rganin.
Eshitdinglar To'tini,
Arpa, bug'doy o'rganin.

Zuryodlar emin-erkin,
Parvoz qilsin, o'ynasin.
Bolalik qaytib kelmas,
Sho'xligini qo'ymasin.

Olahakka, Qarg'aga,
Taqsangiz ham zar baldoq.
Tug'ilmaydi ulardan,
Qorayaloq, Zarg'aldoq.

Nahotki ibrat bo'lsa,
To'ti aytgan Qarqunoq?
O'zgalar uyasiga,
Tuxum qo'yar u chunoq.

Asoslab berdi Bulbul,
Ma'ruzaning kam-ko'stin:
– Qolipga solib bo'lmas,
Qushlar bolasin, do'stim!

Oy va Quyosh tufayli,
Olam qutlug', yorishgan.
Onajonim tabiat,
Saqlar charchoq, horishdan.

Tangrim o'zi saqlasin,
Robot bo'lib qolishdan.

Abdullay NOSIROV

– Doda, dada, Sunnatni mashina
turtib yubordi...

Asatillohning bexosdan
aytgan gapidan Ikrom buva
dovdirab qoldi:

– A... Qayerda?

– Muyulishda, – dedi
Asatilloh shosha-pisha.
Chopib kelganidan uning
nafasi bo'g'iziga tiqilib qolgan
edi. – Sunnat muyulishda
mashinaga osilgan edi. Qo'li
chiqib ketdi. Orqadan kelgan mashina uni turtib yubordi.

– O'zi omonmi?

Bir zum karaxt bo'lib qolgan buva o'ziga kelib, ko'chaga otildi. Muyulishga tumonat odam yig'ilgan edi. Hushsiz yotgan Sunnatillani haydovchisi ko'tarib olib, mashinasiga olayotgan ekan. Yuzlari dokadek oqarib ketgan onasi o'rtada titrab turar, boshidagi ro'moli sirg'alib, yelkasiga tushib qolgan edi.

Sunnatilla bilan birga mashinaga osilgan bolalar uy-uyilariga qochib kirib ketishgan, biri derazadan, boshqasi darvozani qiya ochib, mo'ralab qarashar edi.

Haydovchi Sunnatillaning onasini ham mashinaga o'tqazib, kasalxonaga olib ketdi.

Ertasi kuni Ikrom buva mahalla gazariga chiqib, gap topib keldi:

– Xayriyat, Sunnatillani Xudo bir asrabdi. Et-beti shiliniydi, xolos.

– Oyoq-qo'li butun ekanmi, buva? – so'radi Asatilloh buvasidan. – Yurib ketadimi?

– Yuradi, yuradi, oyoq-qo'li butun. Faqat sho'xlik qilib, ko'pchilikni xavotirga solgani qoldi.

– Haydovchini jazolashmadimi? – ajablendi Asatilloh.

– Nega uni jazolashadi? Ayb haydovchidamas-ku, – xunobi oshib dedi Ikrom buva.

– Ayb kimda bo'lmasa?

– Sunnatillaning o'zida, – dedi Ikrom buva tovushini balandlatib.

– Iya, o'zi mashina turtvorsin debdimi? – buvasining gapiga tushunolmay yana hayronligi oshdi Asatillohning.


– Mashinaga osilish yaxshi emas, odobsiz bolalar shunday qilishadi.

– Sirpanmoqchi bo'lgan-da, – deya do'stini himoya qilmoqchi bo'ldi Asatilloh ovozini biroz pasaytirib.

– Ha, sirpanmoqchi bo'lgan. Mana oqibati! – dedi Ikrom buva Asatillohga saboq bo'lsin deganday...

– Buva, – dedi birozdan so'ng Asatilloh erkalanib, – men mashinaga osilmayman.

– Aqlli bolalar mashinaga osilmaydilar, – dedi Ikrom buva nabirasining boshini silab.



GO'ZALLIK TIMSOLI

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi «Bolalar ijodiyot markazi»da faoliyat ko'rsatayotgan ingliz tili, rus tili, matematika, informatika, aviamodel, raketamodel, biser to'qish, kichikintoylarni maktabga tayyorlash, raqs to'garaklari bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazibgina qolmay, ular iste'dodining yuzaga chiqishiga ham ko'makdosh bo'lmoqda.



MANZURA olgan surat

Ayniqsa, X. Kamolov rahbarlik qilayotgan mazkur markazning raqs to'garagiga qatnovchilar soni tobora ortib bormoqda. «Nafis» guruhi rahbari Go'zal Orifjonova qizaloqlarga badiiy gimnastika, raqs sirlarini qunt bilan o'rgatayapti. Raqs yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan ko'rik-tanlovda yosh raqqosalardan Bonu Zoitova, Zeboxon Rustamxonova, Arisha Ishanova, Laziza Bahromova, Nazokat Bahromova, Laziza Saidmuhammedova, Nozima Eldorova, Dilobar A'zamova singari yosh raqqosalar o'zlarining go'zal va maftunkor raqslari bilan tomoshabinlarga zavq ulashdi. Go'zallik timsoli deya ta'riflanadigan san'atning raqs turi qizlarning ko'rkiga ko'rk qo'shibgina qolmay, ruhan tetik, jismonan sog'lom bo'lishlariga ham xizmat qiladi.

Zahroxon MUSAYEVA,

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining 2-bosqich talabasi



(Boshi 1-beta)

Yosh bo'lishiga qaramay, sportning Taekvando JTF turi bilan muntazam shug'ullanib, O'zbekiston terma jamoasi safida nufuzli xalqaro musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab kelayotgani, uning yuksak iste'dod sohibi ekanidan dalolatdir.

YUTUQLAR GAROVI



Jumladan, Rossiyaning Sochi shahrida bo'lib o'tgan yirik xalqaro musobaqada faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Qozog'istonning Ostona shahrida o'tkazilgan musobaqada esa shohsupaning ikkinchi pog'onasiga ko'tarildi.

O'tgan yili Estoniyada bo'lib o'tgan Jahon chempionatida o'z vazn toifasida faxrli 3-o'ringa sazovor bo'ldi.

- Dunyoning 84 ta mamlakatidan eng sara sportchilar ishtirok etgan ushbu musobaqada menga Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan kelgan tengdoshlarim jiddiy qarshilik ko'rsatishdi. Nasib bo'lsa, Olimpiada o'yinlarida ham O'zbekiston sharafini munosib himoya qilib, sovrindorlar qatoridan joy olishga harakat qilaman, - deydi Abdulaziz Melixojayev.

Tengdoshingizga bo'yindagi shoda-shoda medallar o'z-o'zidan berilgani yo'q. Har birining ortida tinimsiz mehnat, intilish, sabr va bardosh yotadi. Siz ham unga havas qiling, sportning biror turi bilan jiddiy shug'ullaning. Shunda, albatta, muvaffaqiyatga erishasiz.

G'ayrat ASHUROV,
poytaxtimizdagi 317-maktabning
Kamolot YOIH yetakchisi

DO'STLIK BELLASHUVI

Yurtimizda Siz yoshlarni har jihatdan sog'lom va barkamol bo'lib o'sishlaringiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etayotgan, sport bilan muntazam shug'ullanib, sog'lom turmush tarzini hayotining bir bo'lagiga aylantirgan tengdoshlaringiz haqida eshitganimizda, ko'nglimiz osmon qadar yuksaladi. Tahririyatimizga kelgan maktubda farg'onalik tengdoshingiz Nuriddin Jo'raboyev ham sportning voleybol turi bilan jiddiy shug'ullanayotgani haqida bizga yozib yuboribdi. Siz ham bir o'qib ko'ring-a:



Tumanimizdan mamlakatimiz nomini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilib kelayotgan ko'plab sportchi yoshlar yetishib chiqqan. Ayni paytda men ham sportning voleybol turi bilan jiddiy shug'ullanmoqdaman. Voleybol maktabimiz o'quvchilarining eng sevimli sport turi sanaladi.

Kuni kecha darsdan so'ng sinfdoshlarimdan tashkil topgan jamoamiz 9-«A» sinf jamoasi bilan voleybol bo'yicha bellashdik. Uchrashuvimiz keskin va murosasiz tarzda o'tdi. Goh raqib jamoa o'yinchilarining, goh bizning tezkor harakatlarimiz muxlislarni hayajonga soldi. Yakunida esa 3-2 natija bilan biz g'alaba qozondik. Sinfdoshlarimiz, o'qituvchi-murabbiylarimiz olqishi bizni yangi yangi g'alabalar sari ruhlantirdi.

Nuriddin JO'RABOYEV,
Farg'ona viloyati,
Bag'dod tumanidagi
1-umumta'lim
maktabining
9-«V» sinf o'quvchisi

Aziz o'quvchilar! O'tgan darslarimizda siz bilan fe'llar va ularning shaxs-sonda tuslanishini o'rgangan edik. Bu galgi mashg'ulotimizda egalik olmoshlarini o'rganamiz.

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

Possessive Pronouns Egalik olmoshlari

Singular Form

- I. My - Mening
- II. Your - Sening
- III. his
her } Uning
its

Plural Form

- I. Our - Bizning
- II. Your - Sizning
- III. Their - Ularning

This is my friend.



These are your sisters.



Absolute Form

Singular Form

- I. Mine - Meniki
- II. Yours - Seniki
- III. his
hers } Uniki

Plural Form

- I. Ours - Bizniki
- II. Yours - Sizniki
- III. Theirs - Ularniki

Example:

Karim is my friend.

This car is his.

Exercise one

Quyidagi mashqda egalik olmoshlarini to'g'ri formasini qo'yib yozing:

1. It is (her, hers) dress.



2. These shirts are (your, yours).



3. This is (our, ours) house. It is (our, ours).



4. This is Tom. It is (his, her) ball.



5. (My, Mine) skirt is red.



6. Jim is (their, theirs) son.



Exercise two:

Fill in as in the example. Mashqni namunaga ko'ra to'ldiring:
(He) His father is a doctor.

1. (I) ... sister is a pupil.



2. (We)... dog is white and black.



3. (He)... mother is a teacher.



4. (You)... bicycle is old.



5. (She)... house is big.



6. (She)... eyes are blue.



7. (They)... cat is brown.



8. (We)... brother is ten years old.



Risolat ISMOILOVA

BOBOMIZ SABOQLARI

Shayx Sa'diyning «Guliston» asaridagi hikoyatlardan birida shunday deyiladi: Bir podshoh o'g'lini olim kishi tarbiyasiga topshiribdi va:



– Bu sening farzanding bo'lsin, o'z o'g'illaring kabi uni ham tarbiyala, unga ta'lim o'rgat, – debdi.

Olim zahmat chekib, shahzodani bir necha yillar davomida o'qitib, o'rgatibdi. Lekin mehnatlari zoye ketibdi. O'z bolalari esa ilm-fan, fazl-u odobda kamolotga yetishishibdi. Bundan ogoh bo'lgan podshoh olimni koyibdi:

– Sen ahdingni buzib, va' daga vafo qilmading, – debdi.

Shunda olim:

– Ey podshohim, ta'lim-tarbiyaning rasm-u qoidasi bir yo'sinda bo'lur, lekin istak va iste'dod turlicha erur, – degan ekan.

Alisher Navoiyning ushbu satrlaridagi falsafiy ma'no Shayx Sa'diy hikoyatidagi olimning hukmiga yaqin.

*Shah lufi garchi bo'lsa ko'p qobil,
topar nash'u namo,
Bevajhdur, bu nuqtaga har
kimsakim diqqat tutar.
Garchi quyoshdin parvarish
olam yuziga omdir,
Sahroda qumg'og'u tikan, bo'stonda
savru gul butar.*

Ya'ni, quyosh olam yuziga teng nur sochsa ham sahroda qumg'og'u tikan, bo'stonda sarv-u gul bitadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, har bir bolada iste'dod, iqtidor mavjud. Ammo uni yuzaga chiqarish, to'g'ri yo'naltirish uchun istag-u xohish ham lozim. Ana shundagina ular ezgu maqsad-u, ko'zlagan orzulariga erishib, el-yurtga manfaatli tegadigan inson bo'lib yetishadilar.

Istardikki, iqtidoringiz istagingiz bilan mutanosib bo'lsin.

OLMOS tayyorladi

«BUYUK SHOIR» AYLANMA KROSSVORDI



Foziljon ORIPOV tuzdi

Javoblarni belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida yozing:

1. Oybekning tarixiy qissasi nomidan: «Bola...».
2. Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni qahramoni.
3. Yosh Alisher bilim olgan Erondagi tarixiy shahar.
4. Doston nomidan: «... va Shirin».
5. Alisher Navoiy homiyligida ijod qilib, jahonga tanilgan miniatyura san'ati namoyandasi.
6. Alisher Navoiy ko'plab asarlar yozgan, sharq she'riyatida ommalashgan, to'rt misradan iborat mukammal asar.
7. Navoiyni ustoz deb bilgan xorazmlik mumtoz shoir.
8. Alisher Navoiy o'n ikki yoshlik davrida yozgan g'azalini o'qib berib, olqishiga sazovor bo'lgan mashhur shoir.
9. Yirik nazmiy asar.
10. Buyuk shoiring hayoti va faoliyati bayon etilgan roman.
11. Fors-tojik qasidanavis shoiri, Alisher Navoiy zamondoshi.
12. Navoiyni ustoz deb bilgan o'zbek mumtoz shoira.
13. Adabiy asaming yakunlovchi qismi.
14. Shoiring turkman xalq etaklaridagi nomi.
15. Alisher Navoiy asari nomidan: «... hadis».
16. Alisher Navoiy asarlaridan foydalanuvchilar uchun XVI asrda tuzilgan ilk izohli lug'at.

Gazetamizning 3-sonida berilgan «BEPOYON VILOYAT» AYLANMA SKANVORDIning javoblari:

1. Nurota. 2. Orasoy. 3. Belarus. 4. Buxoro. 5. G'ozg'on. 6. Grafit.
7. Yulg'un. 8. Sement. 9. Tuvaloq. 10. Navkar. 11. Muruntov.
12. Bahrom. 13. Jo'rayev. 14. Shalqar. 15. Musicha. 16. Mo'lali.
17. Karmana. 18. Farhod. 19. Xojiyeva. 20. Litsey. 21. Olxo'ri.
22. Karate. 23. Yaylov. 24. Raboti. 25. Shaxmat. 26. Do'lana.
27. Qorako'l. 28. Fayziyev. 29. Soyaki.

8

4-fevral 2013

Bosh muharrir:
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSIYOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir:
Yusuf
ABDULLAYEV
Rassom:
Feruza
MATYOQUBOV
Dizayner:
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhih:
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manzilibiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 88 555
Buyurtma J 6343

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.